

Yashil

IQTISODIYOT
TARAQQIYOT
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4

No 7



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 348 sahifa.

E'lton qilishga 2024-yil 25-iyulda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIU professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,
Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan
Buzrukhanov Sarvar Khan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan
Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation
Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute
Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE
Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE
Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University
Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan
Ochilov Farkhad, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan
Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE
Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute
Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia
Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction
Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA
Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA
Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey
Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| Avtosanoat korxonalari marketing strategiyasini takomillashtirish yo'llari | 16 |
| Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zayniddinova Umida Djalolovna | |
| Mamlakat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalar omilidan foydalanish istiqbollari | 26 |
| Izbosarov Boburjon Baxriddinovich, Abdurasulov Ravshanbek Xotam o'g'li | |
| Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institutsional tahlili | 32 |
| Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li | |
| Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash holatining tahlili | 37 |
| Turgunov Odilbek Maripovich | |
| Etnografik turizmni tashkil etishning xorij tajribasi | 41 |
| I. Axmedov | |
| Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagи rolini tahlil qilishning zamонавиy yondashuvlari | 46 |
| Xusanov Murodjon Sunnatullayevich | |
| Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning rivojlanish tarixi | 54 |
| Maksudov Avazbek Ulug'bek o'g'li | |
| Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish asosida inson kapitalini rivojlantirish | 59 |
| Ubaydullaev G'ayrat Zuvaytovich | |
| O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning o'rni | 65 |
| Bayanova Mavlyuda Djurayevna | |
| The Effect of Students' Financial Status on Academic Performance in Uzbekistan | 70 |
| Alimov Damirjon Odilovich | |
| Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining o'rni | 76 |
| Jusupova Anjim Tansiqaevna | |
| Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce | 82 |
| Sohibjamol Abirkulova | |
| Nodavlat umumiy o'rta ta'lif maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashdainnovatsion usullardan foydalanish | 87 |
| Ustadjalilova Xurshida Aliyevna | |
| Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobi va audit bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari | 92 |
| Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li | |
| O'zbekiston Respublikasi budgetining shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi | 97 |
| Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna Mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishida energosamaradorlikning roli | 104 |
| J. J. Yaxshilikov | |
| Сравнительный анализ состояния сферу услуг в регионах Андижанской области | 109 |
| Мусабоев Рустам Алихонович | |
| Hududlarda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda ishlab chiqarish sanoatining o'rni (Qashqadaryo viloyati misolida) | 114 |
| Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Baxronov Baxriddin Najmiddinovich | |
| Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomillashtirish yo'llari | 118 |
| Ermatov Utkirbek Baxodirjonovich | |



| | |
|--|-----|
| Развитие цифровой экономики в Узбекистане, ее плюсы и минусы Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи, Мамбетова Мадина Зохид кизи, Алижонова Малика Алижон кизи, Хакимова Нигора Бахтиёрова | 122 |
| Investment Management is an Important Factor of Economic Development..... Yuldasheva G. A., Ziyayev Dilshodjon | 127 |
| O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sanoatining rivojlanish istiqbollari..... Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li | 130 |
| Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni moliyalashtirish..... Toyrova Yunus Alakovich | 136 |
| Operatsion faoliyatni boshqarishda strategiya tushunchasiga bo'lgan yondashuvlarning shakllanishi..... Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich | 143 |
| Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash..... Xusniddinov Yorqinjon Muxiddin o'g'li | 148 |
| Budget tashkilotlarida pul mablag'lari nazarat qilishni rivojlantirish yo'llari..... Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Djalilova Malika Shuxratovna | 152 |
| QQS ma'murchiligining yevropa tajribasi..... Bisenbayev Sharyar Kuanishbayevich | 157 |
| O'zbekistonda soliq yukiga ta'sir etuvchi omillar tahlili | 162 |
| Nasimov Ravshanjon Azimovich | |
| Raqamli iqtisodiyot sharoitida muqobil energiya vositalaridan foydalanib ma'lumot almashinish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari | 170 |
| Ashurov Azizbek Ergash o'g'li, Janzakov Bekzot | |
| Analysis of the theoretical foundations of sustainable economic development at regional level | 175 |
| Khudayorova Munira Omonboy kizi | |
| Soliq ma'murchiligidagi joriy etilgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mehanizmini takomillashtirish yo'llari | 182 |
| Muxtorov Zokir Sayfulla o'g'li, Karimov Ilhom Anorboy o'g'li, Homidov Asrorbek Tohirjon o'g'li, Axmedova Shoxista G'ayrat qizi | |
| Sirdaryo viloyatining investitsiya muhiti zamonaviy rivojlanish tendensiyalari | 187 |
| Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna | |
| Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari..... Razzoqov Bexzod Gofurovich | 191 |
| Modern trends in assessing the impact of industrial development on the environment..... Turg'unov Jasurbek Alimardon o'g'li | 196 |
| Pul oqimlarini guruhlash mezonlari bo'yicha tasniflashni kengaytirish | 202 |
| Atamurodov Saidmurod Xayyoevich | |
| Iqlim o'zgarishlari va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirining ilmiy-nazariy tahlili | 208 |
| Ashrafjon Elov | |
| Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati | 214 |
| Abramatov Eldor Toshmamatovich, Alimov Abduraxon Alxamiddin o'g'li, Shodmonqulov Temurbek Ulug'bek o'g'li, Nurillayev Jasurbek Davronbekovich | |
| Tijorat banki daromadlari - moliyaviy barqarorlikni omili sifatida..... Umarov Davron Shavkatovich | 218 |
| Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona barqarorligini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari | 223 |
| Masharipova Manzura Alimbayevna, Rahimov Mirjalol Sultonboy o'g'li | |
| Innovatsion yondashuvlar asosida chakana savdoni rivojlantirish yo'nalishlari..... Saparova Mohira Alisher qizi, Abdullayev Ilyos Sultanovich | 227 |



| | |
|---|-----|
| Experience of foreign countries in youth labor market research | 231 |
| Asqarova Muhabbat Ibraximovna | |
| Xorij mamlakatlarida ijtimoiy tibbiy sug'urta badallari qiymatlarini taqqoslash | 235 |
| Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi | |
| O'zbekistonda alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarilishi hamda realizatsiya qilinishi tahlili | 241 |
| Eshmatov Sirojiddin Tog'aymurodovich | |
| Oliy ta'lif muassasalarini xalqaro tasnifining vujudga kelishi ilg'or tajribalari..... | 247 |
| Yuldashev Iskandar Bahromovich | |
| Analiz зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран..... | 253 |
| Буранова Лола Вахобовна | |
| Davlat oliy ta'lif muassasalarida ta'lif xizmatlari xarajatlari hisobini takomillashtirish..... | 263 |
| Abdurahmanov Otabek Patidinovich | |
| "To'qimachilik sanoatini rivojlantirish yo'lidagi muammolar va yechimlar" | 270 |
| Otaxanova Umida Olim qizi | |
| Raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqalar infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollari..... | 275 |
| Sayfulina Alfira Feratovna | |
| Oliy va xususiy ta'lif muassasalarida ta'lif menejmentini qo'llash hamda alohida mexanizmlarining tahlili..... | 281 |
| Teshaev Hotamjon Ixtiyor o'g'li, Narzullayeva Gulchehra Salimovna | |
| Jismoniy tarbiya va sport sohasini davlat-xususiy sheriklik asosida boshqarishning nazariy asoslari | 287 |
| Yuldoshev Ulug'bek Asqar o'g'li | |
| Asosiy vositalarga oid BHXS va MHXSlar maqsadi va amaliyotda qo'llanilishi..... | 293 |
| Nematova Dilnoza Azamatovna | |
| Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari va omillari | 297 |
| S.M.Xolxo'jayev | |
| The implementation of eco-tourism in supporting the optimality of tourism sector (case study in Indonesia and Uzbekistan) | 302 |
| Khalimova Mohirabonu, Alfira Sofia, Diana Igorevna Stepanova | |
| Innovations ini export logistics for Uzbekistan's produce..... | 310 |
| Sevinch Makhmutullaeva | |
| Tijorat banklarida ichki audit faoliyatini rivojlantirishning ahamiyati | 314 |
| Yo'ldashov Adham Tavboyevich | |



TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Yo'ldashov Adham Tavboyevich

Bank-Moliya akademiyasi magistri

Annotatsiya: Ushbu maqola tijorat banklarida ichki audit faoliyatini rivojlantirishning ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada ichki audit tizimining asosiy funksiyalari, uning bank boshqaruvidagi o'rni va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada ichki audit jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berildi va zamonaviy texnologiyalarning ichki audit faoliyatiga ta'siri ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ichki audit tizimining doimiy ravishda rivojlantirilishi banklarning raqobatbardoshligini oshirishda va mijozlar ishonchini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: ichki audit, tijorat banklari, moliyaviy xavflar, operatsion samaradorlik, audit tizimi, bank boshqaruvi, raqobatbardoshlik, mijozlar ishonchi, zamonaviy texnologiyalar, moliyaviy barqarorlik.

Abstract: This article is devoted to the study of the importance of developing internal audit activities in commercial banks. The article analyzes the main functions of the internal audit system, its role in bank management and development trends. The article also gave recommendations for improving internal audit processes and considered the impact of modern technologies on internal audit activities. The results of the research show that the continuous development of the internal audit system is of great importance in increasing the competitiveness of banks and strengthening the trust of clients.

Key words: internal audit, commercial banks, financial risks, operational efficiency, audit system, banking governance, competitiveness, customer confidence, modern technologies, financial stability.

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию важности развития деятельности внутреннего аудита в коммерческих банках. В статье анализируются основные функции системы внутреннего аудита, ее роль в управлении банком и тенденции развития. Также в статье даны рекомендации по совершенствованию процессов внутреннего аудита и рассмотрено влияние современных технологий на деятельность внутреннего аудита. Результаты исследования показывают, что постоянное развитие системы внутреннего аудита имеет большое значение в повышении конкурентоспособности банков и укреплении доверия клиентов.

Ключевые слова: внутренний аудит, коммерческие банки, финансовые риски, операционная эффективность, система аудита, банковское управление, конкурентоспособность, доверие клиентов, современные технологии, финансовая устойчивость.

KIRISH

Bozor munosabatlарининг shakllanishi sharoitida korxonalar faoliyati to'g'risida ishonchli axborotlariga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Korxonalar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar ularning buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarida aks yettililadi. Ushbu hisobotlardan foydalanish ta'sischilar, aksiyadorlar, soliq organlari, banklar, etkazib beruvchilar hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga korxonaning joriy moliyaviy holatini, uning faoliyati samaradorligini va rivojlanish istiqbollarini baholash imkonini beradi. Shunday ekan, tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etilayotgan ma'lumotlar ishonchli, xolis va amaldagi qonunchilikka mos bo'lishi zarur. Audit bunday ma'lumotni olishga yordam beradi.

Mamlakatimizda moliyaviy sektorning barqarorligi va rivojlanishi uchun tijorat banklarining o'rni katta ahamiyat kasb etadi. Bank tizimining barqarorligi va ishonchliligi uchun ichki audit faoliyatining rivojlanishi zarur. Audit mustaqil moliyaviy nazorat bo'lib, uning maqsadi tadbirkorlik subyektlarining buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarining ishonchliigini va moliyaviy (xo'jalik) muomalalarining amaldagi qonunchilikka muvofiqligini aniqlashdan iborat. Shuni ta'kidlash kerakki, audit nafaqat kompaniyaning moliyaviy hisobotlarining ishonchliigini tekshirishni, balki balanslarni, auditorlar tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy hisobotlarni tekshirishni va xo'jalik faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqishni ham o'z ichiga oladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARI

Tijorat banklari faoliyatida ichki auditorlik tekshiruvini tashkil qilishning nazariy va uslubiy asoslarini o'r ganish masalalari ko'pchilik iqtisodchi olimlar hamda mutaxassislarining e'tiborida bo'lgan. Jumladan, rossiyalik olim Kochinev (2004) banklarda audit o'tkazishda audit jarayonini rejalashtirishga alohida e'tibor qaratgan bo'lib, uning fikriga ko'ra "audit jarayonini rejalashtirish umumiylar maqsadga erishish uchun harakatlarning yig'indisi bo'lib, asosiy maqsadga erishish uchun tekshiruv strategiyasini va taktikasini tanlash, tekshiruv turi, hajmi va harakatlar ketma-ketligini ta'minlashdir".

Slaveniyalik olim Ion-Bogdan Dumitrescu (2004): "Ichki audit mustaqil va maslahat beruvchi faoliyat bo'lib tashkilot faoliyatini yaxshilaydi. Bu tashkilot maqsadiga tizimli, intizomli yondashuv orqali erishishga, risklarni baholashga va tashkilot samaradorligini oshirishga yordam beradi" deya ta'rif bergan bo'lsa, lordaniya davlatining ilmiy tadqiqotchisi Arsha Amaushning (2017) fikricha, "Ichki audit vataftish komissiyasi rolining ahamiyati har qanday bankda institutsional boshqaruv tizimining muhim ustunlaridan biri sifatida ta'kidlanishi kerak. Banklarda audit o'tkazish favqulodda ehtiyojdir, chunki har qanday muammo yuz bersa, ko'plab ishchilar va milliy iqtisodiyotga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Institutsional boshqaruv kontseptsiyalari, shu jumladan Markaziy bank rahbariyati taftish komissiyasini ilmiy va amaliy tajribaga ega bo'lgan mustaqil va ketma-ket direktorlar kengashining a'zolaridan iborat bo'lishi kerak".

Shuningdek, xorijlik olimlar Defliz, Jenik, O'Reyli hamda Xirshlarning (1997) ta'riflashicha, "banklarda ichki nazorat tizimini tekshirish natijasida auditor tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalarning haqqoniyligini va uni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni moliyaviy hujjatlarda aniqlanishi imkoniga mumkinligiga baho berishdan iboratdir".

Mamlakatimiz olimlaridan Sh.Abdullaeva, N.Karimov, T.Qoraliev, I.Murugova, K.Navro'zova, S.Norqobilov, Abdusalomova O., X.Rahimova va ilmiy ishlardan o'z ifodasini topgan. Xususan, mahalliy olimlarimiz M.L.Yadgarova, R.B.Qurbanovlarning fikricha, bank auditni auditning muhim bo'limi bo'lib, mustaqil nazorat qiluvchi subyekt sifatida bank tomonidan berilayotgan moliyaviy axborotlaming haqiqiyigini tasdiqlaydi. Undan kutilayotgan maqsad bank faoliyatining barcha qirralari bo'yicha faktlami yig'ish va baholash, hisobotlami tekshirish, ulaming me'yoriy hujjatlarga mos ravishda bajarilgan yoki bajarilmaganligini tekshirishdan iborat (Yadgarova, Qurbanov, 2019).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Tijorat banklarida ichki audit faoliyatini rivojlantirishning ahamiyatini o'rganishda umumiylidandan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usulalarini keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ichki audit – bu tashkilot ichida amalga oshiriladigan mustaqil va obyektiv kafolat va maslahat beruvchi faoliyat bo'lib, tashkilotning ish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan. Ichki auditning asosiy vazifasi bankning moliyaviy holatini, ichki nazorat tizimini va ish jarayonlarini tekshirish orqali xavflarni aniqlash va kamaytirishdir. Ichki audit faoliyati o'zining qator vazifalariga ega. Bular quyidagilar:

- bankning moliyaviy hisobotlarini tekshirish va baholash;
- ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash;
- bank faoliyatidagi xavflarni aniqlash va boshqarish;
- bankning amaldagi qonun hujjatlari va ichki qoidalariga rioya etishni nazorat qilish;
- tashkilotning samaradorligini oshirish.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-677-sون Qonuning qabul qilinishi, auditorlik faoliyatini tartibga solishda hijjatlarni unifikatsiyalab va tizimlashtirib yagona normativ – hujjatning shakllanishiga sabab bo'ldi. Qonunda quyidagi tushunchalar mavjud:

*Auditorlik tashkiloti – auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va turdosh xizmatlar ko'rsatish bo'yicha auditorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti;

* Renking – auditorlik tashkilotlarining faoliyatini tavsiylovchi, muayyan ko'rsatkichlar bo'yicha guruhlarga ajratilgan auditorlik tashkilotlarining tartibga solingen ro'yxatlarini shakllantirish;

* Auditorlik tashkilotlarining reyestri va auditorlar va boshqa tushunchalar.

Belgilanishicha, auditorlik faoliyati audit, sifat nazorati, tahlili tekshiruvlar, ishonchni ta'minlaydigan topshiriqlar, turdosh xizmatlarning xalqaro sifatlari asosida amalga oshiriladi. Standartlar Xalqaro buxgalterlar



federatsiyasining Audit va ishonchni ta'minlaydigan topshiriqlarning xalqaro standartlari bo'yicha kengashi tomonidan e'lon qilinadi. Auditning xalqaro standartlarini mamlakatimiz hududida qo'llash uchun ularni tan olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Auditorlik sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari hamda Vazirlar Mahkamasi, Moliya vazirligi, MBning auditorlik faoliyati sohasidagi vakolatlari belgilandi.^[1]

Bugungi kunda ichki audit faoliyatining rivojlanishi, bir qator ahamiyatlari jihatlarni o'z ichiga olmoqda. Xususan, xavflarni boshqarish – ichki audit faoliyati bankdagi moliyaviy va operatsion xavflarni aniqlash va boshqarish imkonini beradi. Bu esa bankning barqarorligini ta'minlaydi. Ishonchni oshirish – bank mijozlarining va investorlarning ishonchini oshiradi. Ichki audit orqali bankning moliyaviy holati va operatsiyalari haqida aniq va ishonchli ma'lumotlar taqdim etiladi. Samaradorlikni oshirish – ichki audit bankning operatsion samaradorligini oshiribgina qolmasdan, balki uning natijalari asosida bank faoliyatida yuzaga kelayotgan kamchiliklar aniqlanadi va ularni qanday qilib bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Qonunchilikka rioya etish – ichki audit bankning amoldagi qonun hujjatlariga rioya qilishni ta'minlaydi. Bu esa bankning yuridik xavflarini kamaytiradi.

Ichki audit faoliyatining samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo'llar taklif etiladi:

- malakali kadrlarga bo'lgan talab: ichki auditorlarning malakasini oshirish va ularni doimiy qayta tayyorlash kurslarida o'qitish;
- axborot texnologiyalaridan foydalanish: ichki audit jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish orqali audit jarayonlarini avtomatlashtirish;
- mustaqillik va obyektivlik holatlari: ichki auditorlarning mustaqilligini ta'minlash va ular faoliyatini tashqi bosimlardan himoya qilish;
- tashqi ekspertlar bilan o'zaro hamkorlik: zarur bo'lganda tashqi auditorlar va ekspertlar bilan hamkorlik qilish orqali ichki auditning sifatini oshirish.

Har qanday biznes faoliyatida – moliyaviy xavflar va ularni boshqarish kabi muhim masalalar mayjud bo'ladi. Moliyaviy xavflar – bu moliyaviy operatsiyalar bilan bog'liq bo'lgan noaniqliklar va yo'qotish ehtimollari. Bu xavflar tijorat banklari faoliyatining ajralmas qismidir va ularni boshqarish moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun muhimdir. Quyida asosiy moliyaviy xavflarning ba'zi ko'rinishlari keltirilgan:

- kredit xavfi: Bu bank qarzdor tomonidan kredit majburiyatining bajarilmaslik xavfi. Bank qarzdorga kredit berib, qarzdor kreditni qaytarolmasa, bank zarar ko'radi.
- likvidlik xavfi: Bankning qisqa muddatli majburiyatlarini bajarishda moliyaviy resurslarning yetishmasligi xavfi. Bu xavf bankning likvid aktivlarining yetarli bo'lmasligi natijasida paydo bo'ladi.
- foiz stavkasi xavfi: Bozor foiz stavkalarning o'zgarishi bank aktivlari va passivlarining qiymatiga ta'sir qilishi xavfi. Bu bankning foiz daromadlari va foiz xarajatlariga ta'sir qiladi.
- valyuta xavfi: Valyuta kurslarining o'zgarishi bankning xorijiy valyutadagi aktivlari va passivlariga ta'sir qilishi xavfi.
- operatsion xavf: Bankning ichki tizimlari, jarayonlari yoki xodimlari bilan bog'liq bo'lgan xavf. Bu xavf, shuningdek, texnologik nosozliklar yoki xodimlarning xatolaridan kelib chiqishi mumkin.
- bozor xavfi: Bozor sharoitlari (masalan, narxlar, foiz stavkalari, valyuta kurslari) ning o'zgarishi bilan bog'liq xavf. Bu xavf moliyaviy bozorlarning o'zgarishidan bankning investitsiya portfeliga ta'sir qilishi mumkin.

Moliyaviy xavflarni boshqarish pulni yo'qotish xavfini kamaytirishi, shuningdek, kompaniyalar omon qolishlarini, qarzlarini to'lashlarini va yomon kunlarni tejaslarini ta'minlashni xohlashadi. Buning uchun xatarlarni boshqarish juda muhimdir.^[2]

Moliyaviy xavflarni boshqarish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Diversifikatsiya: Bankning investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish orqali xavflarni kamaytirish.

Xedjing: Moliyaviy instrumentlardan foydalanib, xavflarni kamaytirish (masalan, valyuta xedjlash yoki foiz stavkalari derivativlari).

Ichki nazorat tizimlari: Bankning ichki nazorat tizimlarini mustahkamlash va samarali audit jarayonlarini amalga oshirish.

Risklarni monitoring qilish: Doimiy ravishda moliyaviy xavflarni monitoring qilish va zaruriy choralarni ko'rish.

Kredit siyosati: Mijozlarga kredit berish jarayonida ehtiyojkorlik siyosatini yuritish va kredit qobiliyatini chuqr tahlil qilish.

Tijorat banklari bozor iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularning muvaffaqiyati va barqarorligi ko'plab omillarga bog'liq. Bulardan biri bank boshqaruvi bo'lib, u tijorat banklarining boshqaruvi moliyaviy tashkilotlarning samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi asosiy omildir. Boshqaruvning asosiy vazifasi strategik

¹ www.norma.uz.Axborot – huquqiy portal. (Ma'lumot 26.02.2021 yidagi "Xalq so'zi" gazetasidan olindi).

² Tijorat moliyaviy xavfi (goztem.com)



rejalashtirish, resurslarni taqsimlash va risklarni boshqarishdan iborat. Bank boshqaruvining samaradorligi korxonaning uzoq muddatli rivojlanishiga ta'sir qiladi. Ushbu jarayonda zamonaviy boshqaruv tizimlari, ya'ni ko'p qirrali boshqaruv tizimi va kompleks boshqaruv tizimi, shuningdek, axborot texnologiyalari va statistik modellardan foydalaniлади. Bank boshqaruvining muvaffaqiyati ko'p jihatdan rahbariyatning malakasi va tajribasiga bog'liqdir.^[3]

Raqobatbardoshlik tijorat banklarining bozor sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun muhim ahamiyatga ega. Raqobatbardoshlik darajasi bankning bozorda o'z o'mnini saqlab qolish va kengaytirish qobiliyatini belgilaydi. Bu, asosan, mahsulot va xizmatlarning sifatiga, narx siyosatiga va mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasiga bog'liqdir. Banklar innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni taklif qilish orqali raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Shuningdek, marketing strategiyalari va brend imidjini yaratish ham muhim rol o'ynaydi.

Mijozlar ishonchi bankning muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi omildir. Ishonch mijozlar va bank o'rta-dagi munosabatlarning mustahkamligi va barqarorligini ta'minlaydi. Mijozlar ishonchini shakllantirish uchun banklar shaffoflik, axborot xavfsizligi, xizmat sifatini yaxshilash va mijozlarga individual yondashish kabi omil-larga e'tibor berishlari lozim. Mijozlarning qoniqish darajasi va ishonchi o'rganilib, ularning ehtiyojlarini qondirish uchun strategiyalar ishlab chiqilishi zarur.^[4]

Zamonaviy texnologiyalar banklarning samaradorligini oshirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash uchun keng qo'llaniladi. Axborot texnologiyalari, xususan, internet-banking, mobil banking va fintech innovatsiyalari bank xizmatlarini osonlashtiradi va tezlashtiradi. Texnologik yechimlar banklar uchun xarajatlarni kamaytirish va xizmatlarning sifatini oshirish imkonini beradi. Shuningdek, texnologiyalar orqali banklar risklarni boshqarish va operatsion samaradorlikni oshirish imkoniga ega bo'ladi.^[5]

Moliyaviy barqarorlik tijorat banklarining uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omildir. Bankning moliyaviy barqarorligi uning aktivlari va passivlari o'rta-dagi muvozanatni, likvidlik va kapital yetariligidini ta'minlash bilan bog'liqdir. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun banklar risklarni boshqarish, ichki nazorat tizimlarini mustahkamlash va regulyatorlar talablariga rivoja qilishlari zarur. Barqarorlik bankka mijozlar va investorlarning ishonchini oshiradi va uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida fikrlar tahlil qilinib, shunday xulosa chiqarish mumkin. Tijorat banklari bozor iqtisodiyotida muhim rol o'ynab, ularning muvaffaqiyati ko'plab omillarga bog'liq. Samarali boshqaruv, raqobatbardoshlik, mijozlar ishonchi, zamonaviy texnologiyalar va moliyaviy barqarorlik bankning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu omillarni chuqur o'rganish va ularga asoslangan strategiyalarni ishlab chiqish tijorat banklariga bozor sharoitida raqobatbardosh bo'lish va rivojlanishda yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ichki auditni takomillashtirish uchun, tijorat banklari quyidagi jaronlarni amalga oshirishlari mumkin:

1.Ichki auditning obyektivligini ta'minlash: Ichki auditning obyektivligi va ishonchli bo'lishi uchun, uning muvofiqligini ta'minlash uchun auditorlar va ichki nazoratchilar tomonidan faol ishlanishi kerak. Audit tashkilotlarining mustaqillik va maslahat berish huquqlarini saqlash juda muhimdir.

2.Ichki nazorat va monitoring tizimini kuchaytirish: Banklar ichki nazorat va monitoring tizimlarini kuchaytirish, ichki nazorat xizmatlarining faoliyatini kuzatib borish, risklarni identifikatsiya qilish va ularni boshqarish uchun muvofiqlikni ta'minlashga yordam beradi.

3.Ichki nazorat va monitoring jaronlarini avtomatlashtirish: Tijorat banklari ichki nazorat va monitoring jaronlarini avtomatlashtirish orqali xavfsizlikni oshirish, risklarni boshqarish va muvofiqlik darajasini oshirishlari mumkin.

4.Ichki auditorlarning sertifikatlangan mutaxassisligini ta'minlash: Ichki auditorlar sertifikatlangan mutaxassislar bo'lishi kerak, ularning ichki auditni sifatlari va samarali amalga oshirishlari uchun zarur bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi muhimdir.

5.Ichki auditning natijalariga oid ma'lumotlarni ko'rsatish: Ichki auditning natijalariga oid ma'lumotlarni bankning rahbariyati bilan bo'lishish, ularning takomillashtirilishi uchun zarur tavsiyalarni berish juda muhimdir.

Bu jaronlar tijorat banklarida ichki auditni takomillashtirish uchun muhim bo'lib, bankning samaradorligini oshirish, xavfsizlikni ta'minlash va qonunchilikni saqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- www.norma.uz.Axborot – huquqiy portal (Ma'lumot 26.02.2021 yidagi "Xalq so'zi" gazetasidan olindi).
- "Tijorat banklarining kapitali" (<https://lex.uz/docs/-2699536>) (uzbek) (2015-yil 13-iyul).

³ Aviso Legal Sobre nosotros. © 2009 – 2024.Global-rates.com es una iniciativa de Triami Media BV.

⁴ Federico I. Poli.Exdirector ejecutivo por Argentina en el BID (2018-2020) y economista UBA | @FIPoli27.

⁵ Z.Umarova "BANKLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BOSHQARISH USULLARI" "Экономика и социум" №3(118)-2 2024 www.iupr.ru.



3. "Tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalari" (<https://www.coursehero.com/file/203876756/Tijorat-banklarda-aktiv-va-pasiv-operatsiyalardocx/>) (uzbek) (2023-yil 21-may).
4. Tijorat moliyaviy xavfi (gozetur.com).
5. Aviso Legal Sobre nosotros. © 2009 – 2024. Global-rates.com es una iniciativa de Triami Media BV.
6. Federico I. Poli.Exdirector ejecutivo por Argentina en el BID (2018-2020) y economista UBA | @FIPoli27
7. Z.Umarova "BANKLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BOSHQARISH USULLARI" "Экономика и социум" №3(118)-2 2024 www.iupr.ru.

Yashi

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

